

PSIXOLOGIYADA TEMPERAMENTGA TAALLUQLI INDIVIDUAL DINAMIK XUSUSIYATLAR

Mirzayeva Shaxnoza Ubaydullo qizi
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Insonning ruhiy olami beto‘xtov harakatlar majmuasidan iborat bo‘lib, biri ikkinchisini bevosita taqazo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o‘xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to‘g‘risidagi taassurotlar, o‘tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o‘zaro o‘rin almashtirib turish evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. Ruhiy olam kechishi, uning sur‘ati, mazmuni, shakli, ko‘lami, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, ijtimoiy turmush voqeliklariga, omillariga, ta‘sir kuchlariga tez yoki sekin, yengil yoki mushkulot bilan javob qaytarishga moyillik ko‘rsatadilar.

Psixologiyada temperamentga taalluqli individual dinamik xususiyatlar o‘rtasida muayyan darajada tafovut mavjudligi alohida ta‘kidlanadi, ular orasidagi farqlarni ajratib ko‘rsatish maqsadida quyidagicha belgilar kiritiladi va o‘ziga xos tarzda tavsiflab beriladi, ularning ayrimlarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq:

1.Favqulotda temperamentning bir xil xususiyatlari motiv, psixik holat va hodisalardan farqli o‘laroq, aynan shu shaxsning o‘zida, uning turli faoliyatlarida, muomalasida ifodalanadi.

2.Temperament xususiyatlari tabiiy shartlanganlik omiliga taalluqli bo‘lganligi tufayli inson hayoti va faoliyatining (umrining) davomida yoki uning muayyan bir bo‘lagida (ta‘sirga beriluvchanligi sababligidan qat‘iy nazar) barqaror, o‘zgarmas va mustahkamdir.

3.Yakkahol shaxsga dahldor temperamentning turli xususiyatlari o‘zaro bir-biri bilan g‘ayriqonuniy ravishda birlashgan bo‘lmasdan, balki ular o‘zaro bir- biri muayyan qonuniyat asosida mujassamlashib, xuddi shu xususiyatlar uning tiplarini tavsiflovchi o‘ziga xos tuzilmani vujudga keltiradi.

Psixologiya fanida **temperament xususiyatlari** deganda, alohida bir shaxsning psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o‘zgarmas individual-tipologik xususiyatlari majmuasi tushuniladi. Mazkur xususiyatlar turli shakl va mazmunga ega

bo‘lgan motivlarda, psixik holatlarda, maqsadlarda, faoliyatlarda nisbatan o‘zgarmas temperament tipini tavsiflovchi tuzilmani tashkil qiladi.

Psixologiya fanining ijtimoiy tarixiy-taraqqiyoti davrida temperamentga nisbatan bildirilgan mulohazalar, uning moddiy asosi to‘g‘risidagi talqinlar xilma- xil bo‘lib, shaxsning psixologik xususiyatlarini o‘ziga xos tarzda tushuntirish uchun xizmat qilib kelgan. Temperament lotincha "temperamentum" degan so‘zdan olingan bo‘lib, buning ma‘nosi "aralashma" degan tushunchani anglatadi. Temperament to‘g‘risidagi dastlabki ta‘limotni yunon olimi Gippokrat (eramizdan oldingi 460 - 356 yillarda yashagan) yaratgan bo‘lib, uning tipologiyasi to hozirgi davrgacha qo‘llanilib kelinmoqda.

Temperamentning fiziologik asoslari.

Qadimgi yunon olimi **Gippokrat** ta‘limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o‘zaro bir-biridan tafovutlanishi, ularning tana a‘zolaridagi suyuqliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda joylashuviga bog‘liq ekanligi tasavvur qilinadi. Gippokrat ta‘biricha, inson tanasida to‘rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo‘lib, ular o‘t yoki safro (yunoncha "chole"), qon (lotincha sanguis yoki sanguinis), qora o‘t (yunoncha melas "qora", chole "o‘t"), balg‘am (yunoncha "phlegma") kabilardan iboratdir. Uning mulohazasicha:

1.O‘tning xususiyati - quruqlikdir, uning vazifasi-tana a‘zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir.


Qonning xususiyati-issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir.

Qora o‘tning xususiyati-namlikdir, uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir.

Balg‘amning (shilimshiq moddaning) xususiyati-sovuqlikdir, uning vazifasi badanni sovutib turishdan iboratdir.

Gippokrat ta‘limotiga muvofiq har bir insonda shu to‘rt xil suyuqlik mavjud bo‘lib, uning bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashma (lotincha temperamentum)lardan qaysi biri salmoqliroq bo‘lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, chunonchi xolerikda sariq o‘t, sangvinikda qon, flegmatikda balg‘am, melanxolikda qora o‘t ustun bo‘lishi ta‘kidlanadi.

Gippokratning to‘rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya‘ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) ramziy ma‘noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo‘llanilib kelinmoqda.



Temperamentning fiziologik asoslariga ulkan o'z hissasini qo'shgan olimlardan biri rus fiziologi **I.P.Pavlov** (1849-1936) hisoblanadi. I.P.Pavlov temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqaradi. I.P.Pavlov ta'limoti bo'yicha, shartli reflekslar paydo bo'lishining individual xususiyatlari ro'yobga chiqishining sabablari nerv sistemasini xususiyatlari mohiyatidandir. Unga ko'ra quyidagi 3 ta xususiyatni ajratib ko'rsatadi:

qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchi;

qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlilikdarajasi;

qo'zg'alishning tormozlanish bilan almashinish tezligi yoki nerv jarayonlarining harakatchanligi.

I.P.Pavlov shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari bilan temperamentga aloqador nerv sistemi xususiyatlarining o'zaro qo'shiluvini nerv sistemasining tipi deb nomlaydi va uni to'rtta tipga ajratadi. Ular quyidagilardan iborat.

Kuchli, muvozanatli, epchil;

Kuchli, muvozanatsiz, epchil;

Kuchli, muvozanatli, sust;

Kuchli, muvozanatsiz sust.

Yirik rus psixologlaridan biri **B.M.Teplov** (1896 - 1965) va uning shogirdlari, maslakdoshlari I.P.Pavlovning tadqiqotlarini davom ettirib, inson nerv jarayonlari xususiyatlarining o'ziga xos tomonlarini ochishga muvaffaq bo'ldilar. Ular nerv-fiziologik jarayonlarning nozik hirralarini o'rganishga maxsus moslamalar yordami bilan o'zgarishlarni qayd qilish hamda olingan natijalarni (omillarni) matematik statistika metodlari orqali hisoblashni tatbiq etdilar. Shuningdek, B.M.Teplov ilmiy maktabining namoyondalari tomonidan ijobiy va tormozlovchi shartli reflekslarning hosil bo'lish tezligini tavsiflovchi individual xususiyatlar turkumi ham ta'riflab berilgandir. Ushbu individual xususiyatlar mohiyatida ifodalanuvchi nerv sistemasining notanish xususiyati

dinamiklik deb nomlangan ham tavsiflangan. Bundan tashqari, ular shartli reflektor faoliyatining bir guruh individual xususiyatlari qo‘zg‘alish jarayoni to‘xtalishining tezligi mahsuli sifatida taxmin qilingan xususiyatni (yangi xislatni) labillik deb atay boshlaganlar. Shuning bilan birga nerv sistemasining boshqa xususiyatlari mavjudligi to‘g‘risida ilmiy taxminlar ilgari surilgan, chunonchi: senzitivlik, reaktivlik va hokazo.

Nerv sistemasining umumiy tiplari kelib chiqishi yuzasidan mulohaza yuritilganda, albatta I.P.Pavlovning ta‘limotini eslash maqsadga muvofiqdir, chunonchi irsiyat yo‘li bilan shartlangan tip - bu genotip demakdir. Hozirgi davrda nerv sistemasining umumiy tipi (genotip) irsiyatga bog‘liq ekanligi haqidagi ma‘lumotlar, juda ko‘p bo‘lib, ular qiyosiy jihatdan hayvonlarni o‘rganish natijasida topilgandir.

Temperamentning tipologiyasi mobodo insonlar temperamentlari bo‘yicha qiyoslansa, u holda uning xususiyatlari jihatidan o‘zaro o‘xshash shaxslarning guruhi mavjudligi namoyon bo‘ladi. Bu asnoda eramizdan oldingi davrda ham temperament tiplari to‘g‘risida materiallar to‘plangan. Ularda temperament tipi deyilganda, insonlarning muayyan guruhlarini tavsiflovchi psixik xususiyatlarning yig‘indisi (majmuasi) tushuniladi. Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma‘lum insonlar guruhi uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o‘zaro bog‘liqligi tushuniladi.

Adabiyotlar

1. Годфруа Ж., Что такое психологию. Т-1, М.: Мир, 1992, 496 с.
2. Гусев А.Н. Психофизика сенсорных задач: Системно- деятельностный анализ поведения человека в ситуации неопределенности. – М.: Изд-во
3. Моск. Ун-та; УМК «Психологию», 2004. – 316 с.
4. Дормашев Ю.Б., Печенкова М.В., Фаликман Е.В., Шилко Р.С., Эффекты перцептивного внимания: эффект Струпа, эффект мигания внимания, комплексный эффект // 3/04/10.
5. Barotov Sh.R. Boshlang‘ich ta‘lim tizimida psixologik xizmat muammosi. Boshlangich ta‘limning dolzarb muammolari. Resp.ilmiy- amal.anjum. Ma‘ruzalarining tezislari. Buxoro, - 1995-B. 15-21.
6. Barotov Sh.R. Sotsialno-psixologicheskie i nauchno-prakticheskie osnovi sozdaniya psixologicheskoy slujbi v Uzbekistane. (Avtoref. diss. dokt.psixol.fan). – T.; 1998. – 37s.